

O'ZBEK TILIDA ILTIFOT VA MINNATDORCHILIKNING IFODALANISHI

Mahmudova Roziya Furqat qizi

Termiz davlat universiteti lingvistika o'zbek tili 1-kurs magistranti.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada o'zbek tilida iltifot va minnatdorchilik ma'nosining qanday ifodalanishi haqida ma'lumot berilgan. O'zbek tilida iltifot ma'nosi, nafaqat, so'z yordamida, balki ma'lum bir holat, imo-ishoralar orqali ham ifodalanishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: O'zbek tili, iltifot ma'nosini ifodalovchi birliklar, iltifot ma'noli so'zlarning badiiy asarlardagi xususiyati va o'rni.

Azal-azaldan o'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi, xushmuomalaligi, yaqinlariga oqibatlilik bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan birgalikda bu xislatlarni o'zida ifoda etuvchi, as ettiruvchi talay so'zlari hamda birikmalariga ham ega. O'zbek xalqi qancha qadimiy xalqlardan biri bo'lsa, uning tili undan-da qadimiyroq deb bimalol ayta olishimiz mumkin. O'zbek tili eng qadimiy va boy tillardan sanaladi. Buni bugungi kun nazarida ham ko'rishimiz mumkin. Kishilar boshlarida og'ir kunlar tushganida ham, bir-birlariga yordam berganlarida minnatdorchilik ifodalaganlarida ham, quvonchli kunlarida ham ma'lum bir so'zlardan foydalanib, muloqot jarayoniga kirishadi. Ana shunday so'zlar so'zlovchi-shaxsning ma'naviy, ruhiy, ichki his-tuyg'ularidan kelib chiqib ifodalanadi. O'zbek tilida iltifot va minnatdorchilikni ifodalovchi bir talay so'zlar va birikmalar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir holatda, ya'ni so'zlovchi tinglovchi yoki o'zga kishidan o'zining ishlariga berilgan yordamni, ijobiy munosabatni kutsa, unda shunday iltifotni yoxud minnatdorchilikni bildiradi. Quyidagi asarlarda ham iltifot va minnatdorchilikning yorqin ifodasini ko'rishimiz mumkin: Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q zaif emas, mayin tovush eshitildi: -Keling!... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akromjon, kursi qo'yib bering!... Badiiy asardan olingan ushbu parchada iltifot ma'nosi "Rahmat!" so'zi orqali ifodalanyapti. Bu yerda uzoq paytdan beri yaqinlarini intiqlik bilan kutib yotgan, so'ngida esa, ularni ko'rgach, xursand bo'lib ketib, uni yo'qlab kelganlari uchun ularga nisbatan iltifotini bildirayotgan xasta ayol holati aks etgan.

Yoki yana bir badiiy asardan parchaga e'tibor qilsak: Mulozimlardan biri shiypon yoniga kelib ta'zim qildi-da, quloq-burni yo'q, g'alati bir chol huzuriga kirishga izn so'rayotganini bildirdi.

Doro II surishtirib, kelgan odamning sak qabilasidan ekanligini bilgach, -Mayli, kirsin, - dedi. Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shihdan o'n besh qadamcha narida to'xtadi-

da,yer o'pdi va o'rnidan turib,ta'zim qilganicha qotib qoldi.Bu kichik parchada esa,holat orqali yuqori darajadagi iltifot ifodalanyapti.Ya'ni oddiy cho'pon-Shiroqning shohga nisbatan soxta iltifoti yuqori darajada ko'rsatib o'tilgan.Bu kabi iltifot va mulozamatni xalq dostonlarida ham uchratishimiz mumkin. "Alpomish"dostonidan keltirilgan ushbu kichik parchada ham shunday vazifa bajargan so'zni ko'ramiz:"Elning katta-kichiklari qulluq bo'lsin"ga kelaberdi.Bu birikma butun el o'z iltifotlarini shohlarga ko'rstish maqsadida ularning huzuriga kelishgani bu orqali ularga nisbatan o'z iltifotlarini ko'rsatish va ularni xushnud etish maqsadida qo'llanilganini his qilmaslikning iloji yo'q.Yoki mana bu gapda ham shunday holatga duch kelamiz:"Ustozim menda mashing mehr uyg'otdi.Undan minnatdorman".Bu yerda nimanidir,ya'ni uning ma'lumoti bo'lmagan narsani o'rgatganligi uchun ustozidan minnatdor bo'lgan shogird timsoli aks ekan.Va cheksiz minnatdorchilik bildirilyapti.Mana bu parchada ham iltifot xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin:-Ha,aytmoqchi,sizlarni bir-birlaringga tanishtirmabman-ku,-Xursandali peshonasiga "shaq-shaq"urdi.-Kalla yo'q-da menda,kalla.Bu kishi buxorolik do'stimiz bo'ladi.Ismi shariflari Aminjon Ne'matov.Moskvada tanishganmiz.Qo'li gul jurnalist. Latifjon qo'llari ko'ksida,labida tabassum bilan,gavdasini oldinga va orqaga tashlab uch-to'rt bor tebratdi.

-Juda yaxshi, juda soz.Bahonada yana bir do'stning sohibi bo'lib oldik.Mehmon hafsala bilan taralgan bo'liq,qop-qora sochini silab,"Rahmat,rahmat",-deb qo'ydi.Bu parchadagi iltifotni ifodalagan jumla,nafaqat,rahmat so'zi orqali,balki shaxs holatida ham ifoda etilgan.Qo'llari ko'ksidaligi,labida tabassum bo'lishi,gavdasini oldinga va orqaga tashlashi kabi holat ifodalari iltifotni ifodalashga xizmat qilib kelyapti.Bu kabi ifodalarni ko'p o'rinda uchratishimiz mumkin.Yana bir qisqa parchaga e'tibor qilsak,bu yerda ham iltifot ma'nosi bor ammo boshqa so'z bilan ifodalangan:"Rashid tashakkur degandek,qo'lini ko'ksiga qo'yib,bosh egdi".Bu parchada qo'lini ko'ksiga qo'yib,bosh egish iltifotning,minnatdorchilikning yorqin misolini ko'rsatib beradi.Qadim paytlarda ham yoshi ulug'larga,ustozlarga shu tarzda iltifot ko'rsatilgan.

Xulosa o'rnida aytish kerakki,o'zbek tilida iltifotni ifodalovchi bir qator so'zlar,birikmalar va holatlar mavjud.Har qanday shu ma'noni ifodalovchi so'z yoxud birikmada so'zlovchi shaxsining,umuman, insonning o'zga bir kishiga nisbatan chuqur ehtiromi,hurmati va minnatdorchiligi aks etadi.Bunday so'zlar lug'atimizda ijobiy so'zlar sanalib,ma'lum bir hissiyotlarimizni ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.A.Qahhor.Ming bir jon hikoyasi. 33-B.1956.
- 2.M.Osim.Shiroq hikoyasi.41-B.
- 3.A.Muqimov.Qo'qon shamoli hikoyasi. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. Toshkent 2016.101-bet.
- 4."Sharq yulduzi" jurnalidan.2008.